XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 27 - sentabr VI-33-33-4-65-K/21 Nishon tuman hokimligi

Tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi Qonuni *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2011 y., 41-son, 448-modda)* va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”2012 yil 16 oktyabrdagi 295-son qarori *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2012 y., 41-42-son, 483-modda)* ijrosini ta’minlash maqsadida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo’yicha viloyat komissiyasining xulosalari va tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risidagi taklifini ko’rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida ”O’zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y.,9-son, 320-modda)* 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimining tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidannom berish to’g’risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo’limi (B.Sherg’oziev), kadastr agentligi Nishon tuman

bo`limi (Yo.Abdishukurov),Kadastrlar palatasi Nishon tuman filiali (X.Zulfiqorov), tuman qurilish bo'limi (Sh.Safarov), tuman ichki ishlar bo'limi (Sh.Shokirov), mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (Sh.Xujaqulova) hamda boshqa tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari nomini davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Tuman ichki ishlar bo'limi (Sh.Shokirov) aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari aholisining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo'l belgilariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5.Tumandagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari yangidan nomlanayotganligi munosabati bilan aholi o'rtasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

6.Davlat kadastrlari palatasi Nishon tuman filiali (X.Zulfiqorov) hamda tuman qurilish bo'limi (Sh.Safarov) ga tuman hududidagi yangidan nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlari nomlari yozilgan ko'rsatkich va belgilari fodalangan peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o'rnatilishini ta'minlash topshirilsin.

7.Mazkur qaror "Nishon tongi" gazetasi hamda tuman hokimligining "nishont.uz" rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8.Mazkur qaror tuman hokimligining "nishont.uz" rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qaror ijrosini taminlash hamda nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi U.Usmonov va tuman hokimining o`rinbosari U.Nabiyev zimmalariga yuklatilsin.

10.Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **M.K.Xayitmuradov**

Халқ депутатлари Нишон туман
кенгашининг
2021 йил 27 сентябрдаги
VI-33-33-4-65-K/21-сон қарорига
1-илова

Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ekt joylashgan Mahalla nomi	Amaldagi nomi	Yangidan berilayotgan nomi
1	Ko’cha	Istiqbol MFY	Nomsiz ko’cha	Go'zal
2	Ko’cha	Istiqbol MFY	Nomsiz ko’cha	Behizor
3	Ko’cha	Istiqbol MFY	Nomsiz ko’cha	Ko'rkam diyor
4	Ko’cha	Istiqbol MFY	Nomsiz ko’cha	Alvon
5	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Hulkar
6	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Oltin ko'l
7	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Baxt-iqbol
8	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Shaffof
9	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Nurlitong
10	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Qipchoq
11	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Sharq
12	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Nazarbek
13	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Bog'bon
14	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Tanovar
15	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Temiryo'l
16	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Izdosh
17	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Shohjahon
18	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Musaffo
19	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Naqqoshlik
20	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Mohir
21	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Aloqachilar
22	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Birlik
23	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Muhandislar
24	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Marhabo
25	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Sayrgoh
26	Ko’cha	Samarqand MFY	Nomsiz ko’cha	Sadarayhon
27	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Oydin hayot
28	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Gulxan
29	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Nurli yog'du
30	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Buyuk Turon
31	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Javhar
32	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Fazogir
33	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Fazilat
34	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Atlas
35	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	O'qituvchilar
36	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Mo"jizakor
37	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Ko'kalamzor
38	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Buyuk zamin
39	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Atirgul
40	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	G'uncha
41	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Ko'hna diyor
42	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Peshqadam
43	Ko’cha	Nishon MFY	Nomsiz ko’cha	Yangi qurilish
44	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Poklik
45	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Giloszor
46	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Yangi kun
47	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Farovon hayot
48	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Kumush
49	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Nurli kelajak

50	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Iste'dod
51	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Fusunkor
52	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Chorraha
53	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Az-Zamaxshariy
54	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Yangi avlod
55	Ko’cha	Qirqquloch MFY	Nomsiz ko’cha	Bog'I Naqshi Jahon
56	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Hamjihatlik
57	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Safdosh
58	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Afruz
59	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Yurtdosh
60	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Havas
61	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	9-may
62	Ko’cha	Oydin MFY	Nomsiz ko’cha	Ishtiyoq
63	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Mustahkam
64	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Surxon
65	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Oydinyo'l
66	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Yorqin
67	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Moziy
68	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Gulchaman
69	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Xusrav Dehlaviy
70	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Bayram
71	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Madadkor
72	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Koshona
73	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Zuhro
74	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Qatortol
75	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Nurtepa
76	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Oynur
77	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Hayot
78	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Yurtsevar
79	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Pahlavon
80	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Oltinasr
81	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Barkamol
82	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Nurota
83	Ko’cha	Navbahor MFY	Nomsiz ko’cha	Tashabbus
84	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Oqtom
85	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Fozillar
86	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Oltinvodiy
87	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Jilg'a
88	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Maorifchilar
89	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Xurram
90	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Zarqaynar
91	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Al-Termiziy
92	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Tabassum
93	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Iqtidor
94	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Chorbog'
95	Ko’cha	Obod MFY	Nomsiz ko’cha	Karvon
96	Ko’cha	Janub Mash’ali MFY	Nomsiz ko’cha	Soflik
97	Ko’cha	Janub Mash’ali MFY	Nomsiz ko’cha	Shafoat
98	Ko’cha	Janub Mash’ali MFY	Nomsiz ko’cha	Nabi Raximov
99	Ko’cha	Janub Mash’ali MFY	Nomsiz ko’cha	Ijodkor
100	Ko’cha	Janub Mash’ali MFY	Nomsiz ko’cha	To'kinlik
101	Ko’cha	Yuksalish MFY	Nomsiz ko’cha	Birdamlik
102	Ko’cha	Yuksalish MFY	Nomsiz ko’cha	Birodarlik
103	Ko’cha	Yoshlar diyori MFY	Nomsiz ko’cha	Charos
104	Ko’cha	Paxtazor MFY	Nomsiz ko’cha	Al-Farobiy